

GULJAMOL ASQAROVANING “SHOIR HASRATI” SHE’RIDA RUHIY IZTIROBLAR TALQINI

Bektemirova Muslima Sherali qizi,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Samarqand filiali talabasi.

Ilmiy rahbar: Nasirov Azimiddin Normamatovich,

SamDU professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: bu maqolada “Shoir hasrati” she’rining badiiy mazmuni, undagi asosiy g‘oyalar, obrazlar va shoiraning ruhiy iztiroblari tahlili qilingan. She’rda lirik qahramonning o‘rni, qalb istiroblari, haqiqat izlab ovvora bo‘lishi, vatanga muhabbati hamda ma’naviy olamining badiiy talqinlari haqida so‘z yuritilgan. She’rda davomli takrorlanadigan “Qadri yo‘q” iborasi shoiraning falsafiy mohiyati chuqur yoritilib berishga xizmat qilganligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: talqin, badiiylik, kechinma, ifoda, mahurat, konflikt, ijodkorlik, anglash, ruhiyat.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДУХОВНЫХ СТРАДАНИЙ В ПОЭЗИИ ГУЛЬЯМОЛА АСКАРОВОЙ «ТОСКА ПОЭТА»

Бектемирова Муслима Шерали кызы,

Студентка Самаркандского филиала Ташкентского

международного университет Кимью.

Научный руководитель: Насиров Азимидин Нормаматович,

профессор СамГУ, доктор филологических наук

Аннотация: в данной статье анализируется художественное содержание поэмы «Тоска поэта», её основные идеи, образы и духовные страдания поэта. В поэме рассматривается роль лирического героя,

страдания души, его странствия в поисках истины, его любовь к родине и художественная интерпретация его духовного мира. Она основана на том факте, что постоянно повторяющаяся в поэме фраза «Нет ценности» глубоко освещает философскую сущность поэта.

Ключевые слова: интерпретация, мастерство, опыт, выражение, искусство, конфликт, творчество, понимание, духовность.

INTERPRETATION OF SPIRITUAL SUFFERING IN GULJAMOL ASKAROVA'S POEM "POET'S LONGING"

Bektemirova Muslima Sherali kizi,

Student of the Samarkand branch of Tashkent

International University Kimyo.

Scientific advisor: Nasirov Azimidin Normamatovich,

doctor of philology, professor

Annotation: this article analyzes the artistic content of the poem "Poet's Longing", its main ideas, images and the poet's spiritual suffering. The poem discusses the role of the lyrical hero, the suffering of the soul, his wandering in search of truth, his love for the homeland and artistic interpretations of his spiritual world. It is based on the fact that the phrase "There is no value" that is constantly repeated in the poem serves to deeply illuminate the philosophical essence of the poet.

Key words: interpretation, artistry, experience, expression, skill, conflict, creativity, understanding, spirituality.

Keyingi yillar she'riyatining yirik vakillaridan biri iste'dodli shoir guljamol Asqarovadir. Shoiraning lirik qahramoni sizni bizni qalb kechinmalarimiz bilan hamohangdir. Oddiy inson, ammo u dunyoni anglashga intilayotgan shaxs timsolidir. She'r qatiga singdirilgan qismat, taqdir fojialari lirik qahramonni

o'zligini anglash imkonini beradi.

Adabiyotshunos N.Raximjonov qayd etganidek: “Iste’dodlarning san’atkorligi – bu bashariy qadriyatga, umumbashariy madaniyatga daxldor ilohiy hodisa. U qo‘l bilan ushlanadigan, ko‘z bilan ko‘riladigan oyboltayu belkurak emas. U shuurimizga tafakkur yog‘dularini olib kiruvchi, tuyg‘ularimizni tarbiyalovchi, ko‘ngil ma’rifati, ma’naviyat hikmati. Buloqlar o‘zligini namoyon etish uchun er yuziga chiqish yo‘llarini izlagan va topgani singari katta iste’dodlar izlanishlarida salohiyatning rangin qirralari o‘z shakllari bilan zohir bo‘larkan” [1, 196-bet].

Darhaqiqat, qayd qilinganidek, she’riyat inson qalbidagi inja tuyg‘ularni namoyon etuvchi vositadir. Undagi talqinqlarda falsafiylik bilan bir qatorda, ijtimoiylik ham o‘zining turli qirralarini namoyon etadi. Shuning uchun ham guljamol Asqarova she’riyatida inson va uning ma’naviy olamidagi kechinmalar, turf axil tuyg‘ular mujassamlashganligini ham alohida qayd etish lozim.

Shoir, tarjimon, nosir, adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam qayd etganidek: “Ha, adabiyot moziyga tayanadi, hozirning havosidan simirib, kelajakka ko‘z tashlaydi, kezi kelganda uni bashorat etadi. Yana ham muhimi, adabiyot mening “men”ligimni, sening “sen”ligingni, uning “u”ligini o‘zimizga ko‘rsatuvchi oyna, inson deb atalmish mamlakat chegaralarini chizib berishga da’vat etuvchi eng kuchli Quadrat! – eng qudratli Kuch! Chunki adabiyot inson o‘zagi bo‘lmish Ruhning ovozi” [2, 11-bet].

Adabiyot, bevosita she’riyat insonni o‘zlik sari eltar ekan, uning kechinmalarini, his-tuyg‘ularini tarbiyalaydi. She’riyat – bu inson ruhiy olamine lirik qahramon asosida yuzaga chiqarashdir. Shuning uchun ham, “90-yillarga kelib ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar madaniy hayotimizga jahon xalqlari sivilizatsiyasi ta’sirida yangicha o‘zgarishlar oqimining kirib kelishi sezilarli darajada kuchayib bordi” [3, 13-bet].

Ana shunday bir davrda adabiyotga kirib kelgan etuk ijodkorlar hayot va inson, shaxs va qismat, olam va odam, tabiat va shaxs kabi qator mavzularni shu darajada yangiladiki, bu esa inson qalb kechinmalarining birlamchi darajaga

chiqishga imkon berdi.

Guljamol Asqarovaning “Shoir hasrati” she’rida shoira o’zining samimiy tuyg’ularini, kechinmalarini hayot tashvishlari bilan asoslab ifoda etadi. She’ning birinchi qatori “Ona!” degan murojaat bilan boshlanishi bejiz emas. Bu so’z zamirida Vatan, Ona kabi timsollar mujassamlashganki, talqinlar kitobxonni fikirlashga, tafakkur qilishga undaydi. Adabiyotning, qolaversa, she’riyatning kuchini, uning mohiyatini anglashga kengroq asos bo’ladi. Ijodkorning lirik qahramoni estetik idealni ifodalovchi vosita ekanligi yana-da, teranlashadi.

Ona!

Davralarning guli bo’ldim men,

Yolg’on maqtovlarning quli bo’ldim men.

Quyoshning tik ketgan yo’li bo’ldim men,

Qumlari to’zigan cho’lcha qadrim yo’q.

Ona obrazi asarda mehr, sadoqat va kechirim timsoli sifatida gavdalanadi. Shoira eng og’ir dardini aynan onaga aytadi, chunki ona farzandini hech qachon tark etmaydigan, uni har qanday holatda tushunadigan muqaddas zotdir. Ikkinchi qatorda esa shunday keltiradi.

“Davralarning guli bo’ldim men” misrasi orqali shoira o’zining jamiyatda mashhur bo’lganini, turli yig’inlarda e’tibor markazida yurganini bildiradi. U tashqi tomondan muvaffaqiyatli, obro’-e’tiborga ega inson bo’lgan. Biroq bu muvaffaqiyat chinakam qadriyat emasligi keyingi misralarda ochib beriladi.

“Yolg’on maqtovlarning quli bo’ldim men” degan satr shoiraning o’ziga nisbatan keskin tanqididir. Bu yerda u samimiy bo’lmagan, manfaat uchun aytilgan maqtovlarga aldanib, o’zligini yo’qota boshlaganini tan oladi. Shuhrat va yolg’on e’tirof shoirani ma’naviy tubanlik sari yetaklagan.

“Quyoshning tik ketgan yo’li bo’ldim men” misrasi mag’rurlik va kibrlanish ramzidir. Quyosh yuksaklik timsoli bo’lsa, uning tik yo’li og’ir va xatarli yo’lni anglatadi. Shoira bu satr bilan o’zini haddan ziyod yuqori qo’rganini, kamtarlikni unutganini ifodalaydi.

She’ning eng alamli nuqtasi esa “Qumlari to’zigan cho’lcha qadrim yo’q”

misrasida mujassam. Bu o'xshatish orqali shoira ichki bo'shliqni, ma'naviy qadrsizlikni his qiladi. Tashqi tomondan mashhur bo'lsa-da, aslida u ona oldida, vijdon oldida o'z qadrini yo'qotganini anglab yetadi. Keyingi kufletiga o'tadigan bo'lsam shoira shunday keltiradi:

To'kila olmasman to'lganim bilan,
Kimning ham ishi bor o'lganim bilan,
Narximni osmonlar qilganim bilan,
Bozorda sotilgan qulcha qadrim yo'q.

“To'kila olmasman to'lganim bilan” misrasi shoiraning ichki holatini ifodalaydi. U ilmga, fikrga, dardga to'la, ammo o'zini erkin ifoda eta olmaydi. Bu holat jamiyatda iste'dodli insonning fikri tinglanmasligi, uning ichki boyligi qadrlanmasligi bilan bog'liq. Shoira to'lgan, ammo to'kilishga – ya'ni jamiyatga foyda berishga imkon topa olmayotganini achinish bilan tasvirlaydi.

“Kimning ham ishi bor o'lganim bilan” satrida esa befarqlikni ya'ni bu yerda “o'lim” so'zi faqat jismoniy yo'qolish emas, balki ma'naviy so'nish, insonning jamiyat ko'z o'ngida ahamiyatini yo'qotishi ma'nosini ham anglatadi. Shoira o'z qismati hech kimni qiziqtirmasligini, uning borligi yoki yo'qligi jamiyat uchun farqsiz ekanini alam bilan ta'kidlaydi. “Narximni osmonlar qilganim bilan” misrasi juda teran ma'noga ega.

Bu yerda “bozor” hayot sahnasini, “qul” esa iste'dod insonning qadirsiz qolishini bildiradi. Shoiraning lirik qahramoni iste'dodi osmonlar qadar ulug' bo'lsa ham, jamiyatning qadr mezonlari boshqacharoq ekanligini anglay boshlaydi. Lirik qahramonning so'zlari baland baholanishi mumkin, ammo bu baho chin ma'noda insoniy qadri anglatmaydi. Bu satr shon-shuhrat va rasmiy maqtovlar ko'pincha soxta bo'lishini fosh etadi.

“Bozorda sotilgan qulcha qadrim yo'q” shoiraning lirik qahramoni o'zini bozorda sotiladigan qulga qiyoslaydi. Ya'ni inson jamiyatda erkin shaxs sifatida emas, foyda keltiradigan buyum sifatida baholanadi. Bu holat shoira ruhiyatidagi eng og'riqli nuqtani ifodalaydi. Keyingi kufletda esa shunday aytiladi:

Vatan, ildizlaring vatan aylovdim,

Yalpizlardan yashil kafan aylovdim,
Ne-ne cho'llaringni chaman aylovdim,
O, bugun qurigan gulcha qadrim yo'q.

Birinchi misrasida “Vatan, ildizlaring vatan aylovdim” shoironing Vatanni nafaqat tug‘ilib-o‘sgan zamin, balki o‘z hayotining ildizi, borlig‘ining asosi sifatida qabul qilganini anglatadi. “Ildiz” timsoli orqali shoira o‘zini Vatandan ayro holda tasavvur qila olmasligini, uning hayoti va mavjudligi aynan shu zaminga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi misrada “Yalpizlardan yashil kafan aylovdim” nihoyatda kuchli va ta’sirchan ramzdir. “Kafan” so‘zi fidoyilik, qurbonlik ma’nosini bersa, “yashil” rang hayot, tabiat va umid timsolidir. Shoira Vatan uchun hatto tabiatning eng beg‘ubor ne’matlaridan ham o‘ziga kafan tayyorlashga, ya’ni jonini fido etishga tayyor ekanini bildirib o‘tadi.

Uchinchi misrasida “Ne-ne cho'llaringni chaman aylovdim” shoironing lirik qahramoni Vatanning qiyin, tashlandiq, bebahra hududlarini ham obod qilish, go‘zallashtirish uchun xizmat qilganini ta’kidlaydi. “Cho‘l” va “chaman” qarama-qarshiligi orqali mehnat, mashaqqat va ijodiy bunyodkorlik g‘oyasi ilgari suriladi. Bu misra shoironing Vatanni faqat sevish bilan cheklanmay, unga amalda xizmat qilganini ko‘rsatadi.

So‘nggi misrada esa, “O, bugun qurigan gulcha qadrim yo‘q” umumiy ruhiy dramatismni yakunlaydi. Shoira o‘zini bir vaqtlar yashnab turgan, ammo bugun qurib qolgan gulga qiyoslaydi. Bu orqali u jamiyatda e’tiborsiz qolganini, fidoyiligi qadrlanmaganini iztirob bilan ifodalaydi. “Gulcha” obrazi shoironing nozik qalbi va sof niyatlarini aks ettirsa, “qurigan” so‘zi umidsizlik va armonni bildiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shoironing lirik qahramoni o‘ziga xos estetik tuyg‘ular zamirida shakllanib boradi. Lirik qahromon kechinmalari asosida, insonni, atrof-muhitni teranroq anglash imkonini bewradi. Estetik idealning ijodkor tarbiya topgan muhit, uning dunyoqarashi, saviyasi, davr talablari bilan chambarchas va uzviy birlikda namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Shuning uchun Guljamol Asqarova she’riyati olamni, odamni teranroq anglashga, falsafiy

ma'nodan o'zlikni anglashga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти (тамойиллар, тажрибалар, сабоқлар). – Тошкент, “Фан”, 2007. – 260 бет.
2. Ҳамдам Улуғбек. Янгиланиш еҳтиёжи. Илмий адабий нашр. – Тошкент, “Фан”, 2007. – 196 бет.
3. Nasirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat. – Turkiya, Istanbul, KESIT, 2019. – 140 bet.